

O`ZBEK TILI LEKSIKASIDA KASB-HUNAR ATAMALARINING ROLI

Ermo`minova Maftuna G`ofurovna

TerDPI 2-bosqich magistranti

Termiz, O`zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`zbek tili leksikasida faol iste`molda bo`lgan kasb-hunar atamalarining roli, uning nutqiy muloqotimizdagi o`rni haqida batafsil ma`lumot keltiriladi. Kasb-hunar atamalarining qo`llanilishi ma`lum nutqiy vaziyatni taqozo etadi. Aytish joizki, kasb-hunar atamalarining izohi sifatida ma`lum misollar keltirilib, uning leksik-semantik jihatdan ahamiyati ushbu misollar yordamida dalillanadi. Bundan tashqari, o`zbek tili leksikasida qo`llaniluvchi kasb-hunar atamalariga lingvokulturologik jihatdan yondashilib, lingvistik jihatdan tadqiq qilinadi.

Kalit so`zlar: o`zbek tili leksikasi, atama, kasb-hunarga oid yondashuv, lingvokulturologik yondashuv, leksik-semantik jihat.

THE ROLE OF PROFESSIONAL TERMS IN THE VOCABULARY OF THE UZBEK LANGUAGE

Ermo`minova Maftuna G`ofurovna,

TerDPI 2st stage master

Termez, Uzbekistan

Annotation. This article provides detailed information on the role of professional terms in active use in the lexicon of the Uzbek language, its role in our spoken dialogue. The use of professional terms requires a certain speech situation. It should be noted that certain examples are given as explanations of professional terms, and its lexical and semantic significance is proved by these examples. In addition, the terms of the profession used in the lexicon of the Uzbek language are studied linguistically and linguistically.

Keywords: Uzbek lexicon, terminology, professional approach, linguoculturological approach, lexical-semantic aspect.

РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ В ЛЕКСИКЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Ермунинова Мафтуна Гофуровна,

Мастер 2 ступени ТерДПИ

Термез, Узбекистан

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о роли профессиональных терминов в активном употреблении в лексике узбекского языка, их роли в нашем разговорном общении. Использование

профессиональных терминов требует определенной речевой ситуации. Следует отметить, что отдельные примеры приводятся в качестве пояснений к профессиональным терминам, и на этих примерах доказывается его лексико-семантическая значимость. Кроме того, термины профессии, используемые в лексике узбекского языка, изучаются лингвистически и лингвистически.

Ключевые слова: узбекская лексика, терминология, профессиональный подход, лингвокультурологический подход, лексико-семантический аспект.

Barchamizga ma`lumki, o`zbek tili leksikasi atamalarga boy bo`lib, har bir soha o`zining tegishli atamalari bilan tilshunoslikning terminologiya sohasiga oid hisoblanadi. Aytish joizki, tilshunoslikdagi ushbu soha aniqlik asosida ish ko`radi hamda xalq tilining boyishiga xizmat qiladi. Terminologiya sohasida kasb-hunar atamalari ma`lum bir yo`nalishni tashkil qilib, ular fanda professionalizmlar deb yuritiladi.

Atamalarning o`zbek tilida son jihatdan ko`pchilikni tashkil etishi ularni mavzuviy guruhlarga bo`lib o`rganishni taqozo qiladi. Chunki o`zbek atamashunoslari S. Ibrohimov, S. Akobirov, Olim Usmon, R. Doniyorov, H. Shamsiddinov, A. Madvaliyev va boshqalar ta`kidlaganlaridek, bunday tahlil atamalarning umumiy boyligini ko`rsatishga, ularni ma`lum bir tartibga keltirishga ko`maklashadi, sohalarga bo`lib o`rganishni osonlashtiradi.

Tilimiz mavqeini ko`tarish, uning imkoniyatlarini masalalardan biri bo`lib qoldi. Tilshunoslikning yo`nalishlari, jumladan, terminologiyasi ravnaqi uchun sohalar ham keng O'zbekistonimiz suvereniteti ona tilimizga bo'lgan e'tiborni tubdan o'zgartirdi. Har bir ilmiy soha uchun zarur bo'lgan terminologiya dolzarb hisoblanadi. Chunki u yoki bu soha uchun muayyan tushunchani anglatgan termin ijtimoiy huquqqa ega bo`lib, muayyan munosabatni anglatadi.

Hozirgi kunning eng dolzarb, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalaridan biri soha tilining tezaurusini tuzishdir. To'g'ri, ilm-fan soha tili terminologiyasiga bag'ishlangan ko'plab lug'at va qomuslar yaratilgan. Ularning har biri o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu manbalarning maqsadi bitta o'zbek tilining terminologiyasini tartibga solish. Ma'lum darajada mazkur vazifa bajarildi ham, ya'ni tushunchalarni ishlatilayotgan to'g'ri ifodalovchi ko'plab terminlar yaraldi.

O`zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug`ullanib keladi. Shuning uchun O`zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulolchilik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, tikuvchilik, kosibchilik, chorvachilik va hokozolar shular jumlasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so`zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o`zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so`zlarga boy. O`zbek tili leksikasida kasb-hunar atamalariga quydagi sohalardan misollar keltirish mumkin:

1. Kulolchilik kasb-hunaridan:

Angob-qizil kesakdan tay-yorlangan bo‘yoq.kulolchilikda keng qo‘llaniladi. Sopol idishlar va buyumlar angob surtishdan oldin quritiladi. Notekis joylari maxsus loy (dazmol loy) bilan tekislanadi, so‘ng ho‘l latta bilan silliqiladi. Ba‘zan angob bir necha qavat surtiladi. Idishlar va buyumlar angobdan keyin naqshlanadi. O‘rta Osiyo xalqlari angobni neolit davri (miloddan avvalgi 4 – 3 ming yillik)dan boshlab sopol idishlarga naqsh berishda va bo‘yashda ishlatgan. Kushon podsholigi (miloddan avvalgi 2 – 1 va mil. 1 – 4-asrlar) davridagi sopol idishlarning sirti angob bilan bo‘yalgan. Bunday idishlar O‘rta Osiyoda qoraxoniylar davri (11 – 12-asrlar)da ham keng tarqalgan. Angobdan qadimgi qabilalar o‘liklarni ko‘mishda ham foydalangan. Ko‘pincha murdaga Angob surtib yoki sepib ko‘milgan. Qadimiy odamlar g‘orlarning devorlariga va qoyatoshlarga Angob bilan rasmlar chizgan. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Zarautsoydan 1936-yilda G. V. Parfenov topgan qadimgi rasmlar (hayvonlar shakllari) ham angob bilan chizilgan¹.

Bulbulzor-sopol tovoqlarga beriladigan naqshning bir turi²

Gulbo‘ta-tog‘dan chiqadigan ko‘kintir oq tusli loy³

Bargi bodom-idishlarga solinadigan bodombargi shaklidagi naqsh⁴

Dog‘chil - xum yasashda ishlatiladigan asbob

Aspak-idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi

2. Poyafzaldo‘zlik kasb-hunaridan:

Bigiz— nina uchli metall qurol; sifatli po‘latdan yasaladi; odatda, dastasi yo‘goch va plastmassadan qilinadi. Yo‘g‘oningichkaligi bilan bir-biridan farq qiladi. Asosan poyabzaldo‘zlar, yamoqchilar ishlatishadi.⁵

Poshna- Oyoq kiyimining tovoniga tag-charmdan balandroq qilib qoqilgan qattiq charm yoki boshqa biror narsa⁶

Dastak- Bu ot tojik tilida dast otiga kichraytirish ma‘nosini ifodalaydigan -ak qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan; kichik tutqich, kichik bir asos kabi ma‘nolarni anglatadi⁷

3. Milliy tasviriy va amaliy san‘at atamalari:

Abdasta gul[f. آبدسته (abdasta) va گل – naqsh] Abdastasimon naqsh.

Adras [f. ادراس] [Tandasi ipakdan, arqog‘i ipdan to‘qilgan, abr gulli gazlama.

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil

² S. Ibrohimov. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. 1056.64-110-betlar.

³ S. Ibrohimov. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. 1056.64-110-betlar.

⁴ S. Ibrohimov. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. 1056.64-110-betlar

⁵ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil

⁶ O‘TIL - O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I - II tomlar. M.: 1981

⁷ O‘TIL - O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I - II tomlar. M.: 1981

Ajdaho ayn. ajdarho [f. ائدر [Shoxsimon gajaklar bilan hoshiyalangan romb shaklidagi naqsh yoʻnalishi, terma gilamlarda qoʻllaniladi. Shoh gajaklar ilon boshiga oʻxshaganligi uchun shunday nomlanadi.

Adip//Magʻiz [f. مغز – miya; oʻzak] Toʻn, parangi, chopon va shu kabi kiyimlarning oldi va etagiga ichidan qoʻyilib tikilgan (5-6 sm) matodan kesib olingan tasma. Qora satin yoki shoyining chetidan qiya yoki uzunasiga qilib kesib olinib, koʻrpa-koʻrpacha va hokazolarning chetlariga birbiriga ulab tikiladi.

Ala qurt ayn. ola qurt. Koʻp rangli qurt koʻrinishidagi naqsh turi.

Amirkon [a. امير – амир soʻzidan] Oshlangan teri yuzasiga qora lok surtib tayyorlangan charm turi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki ,oʻzbek tili lugʻat boyligida qoʻllanilayotgan kasb-hunarga oid atamalar nutqimizning yanada aniqroq maʼno kasb etishiga xizmat qiladi. Kasblar doirasida qoʻllanilayotgan terminologik birliklar buning poydevori boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil
2. S.Ibrohimov. Fargʻona shevalarining kasb-hunar leksikasi. 1056.64-110-betlar. OʻTIL – Oʻzbek tilining izohli lugʻati. I - II tomlar. M.: 1981
3. A k o b i r o v S. Til v a terminologiya. –T., “Fan”, 1968.
4. Ilmiy-amaliy konferensiyatezislari. – Navoiy, 1993.
5. Russko-uzbekskiy slovar. – M., 1954.
6. T u r s u n o v a T. Oʻzbek tili amaliy sanʼat leksikasi. – T., “Fan”, 1978.
7. T u r s u n o v U., Oʻ r i n b o y e v B. Oʻzbek adabiy tili tarixi. – T., Oʻqituvchi, 1982.
8. Oʻzbek tili leksikologiyasi. – T., “Fan”, 1981.
9. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. T., “Oʻqituvchi”, 1976.
10. Oʻzbek tilining izohli lugʻati, 1 – II tomlar. – Toshkent, “Rustili”, 1981.
11. Oʻzbek xalq shevalari lugʻati – T., “Fan”, 1971.
12. www.wikipedia.org
13. www.ziyouz.com
14. www.hozir.org
15. www.google.com